

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

FAYZULLAYEV XURSHID ISMATILLA O'G'LI

**FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA RASMIY-IDORAVIY
HUJJATLARNING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI
(ariza va tavsiyanomalar misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации на соискание ученой степени
доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

**Contents of the abstract of dissertation of Doctor of philosophy (PhD)
in philological sciences**

Fayzullayev Xurshid Ismatilla o‘g‘li

Fransuz va o‘zbek tillarida rasmiy-idoraviy hujjatlarning lingvopragmatik tahlili
(ariza va tavsiyanomalar misolida) 3

Файзуллаев Хуршид Исматилла угли

Лингвопрагматический анализ официально-деловых документов на
французском и узбекском языках (на примере заявлений и рекомендательных
писем) 27

Fayzullaev Khurshid Ismatilla ugli

Linguopragmatic analysis of official-administrative documents in French and
Uzbek (on the example of applications and recommendation letters)..... 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 59

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

FAYZULLAYEV XURSHID ISMATILLA O‘G‘LI

**FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARIDA RASMIY-IDORAVIY
HUJJATLARNING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI
(ariza va tavsiyanomalar misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fil3199 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdchti.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Ashurov Shaxobiddin Saidovich**
filologiya fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar: **Kiselyov Dmitriy Anatolevich**
filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Nishonov Patxiddin Payziboyevich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil « 3 » aprel soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 238-29-37; faks: (998966) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.ru).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (62856-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 233-78-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil « 16 » mart kuni tarqatildi.
(2026-yil « 16 » mart dagi 17 -raqamli reyestr bayonnomasi)



N.Z. Nasrullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc)
professor

O'.O'. Qo'ldoshov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

U.D. Qarshibayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida nisbatan yangi yo‘nalish hisoblangan pragmalingvistika sohasi so‘nggi yillarda tilshunoslarning diqqat markazida bo‘lib, uning dolzarb masalalari bo‘yicha aksariyat tadqiqotchilar tomonidan ko‘plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda rasmiy uslubda yozilgan idoraviy ish hujjatlarini ham pragmatik jihatdan o‘rganish va ularni ilmiy tahlil etishga bo‘lgan qiziqishning paydo bo‘layotganligini kuzatish mumkin. Shu tariqa rasmiy yozishma va hujjatlar matnining pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish hamda ularni idrok etish jarayoniga nisbatan pragmalingvistik nuqtayi nazardan yondashish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Bundan tashqari, fransuz tilini o‘rganuvchi ko‘plab o‘zbek yoshlari xorijda tahsil olish uchun turli xil stipendiyalar sohibi bo‘lish maqsadida bir qancha tanlovlarga qatnashish istagini bildirmoqda. Ma’lumki, bu jarayonda talabalardan rasmiy hujjatlar va yozishmalar ustida ishlash ko‘nikmasi qoniqarli darajada bo‘lish talabi ushbu ishning dolzarbligini belgilab beradi.

Dunyo tilshunosligida til hodisalarini lingvopragmatik hamda nutqiy aktlar nuqtayi nazaridan keng tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buning natijasi o‘laroq, har qanday lisoniy hodisa pragmatika sohasining asosiy tadqiqot obyektiga aylanib ulgurgan. Shu jumladan, til uslublariga doir masalalarni lingvopragmatik tamoyillar asosida o‘rganish hamda nutqiy aktlar masalasi xalqaro darajadagi ilmiy-amaliy tadqiqotlar ro‘yxatidan keng o‘rin egallamoqda. Binobarin, rasmiy hujjatlar matnining lingvopragmatik xususiyatlarini tahlil qilish, ya’ni rasmiy muloqotning ta’sir mexanizmini aniqlash muallif xohish-istagini bayon qilish jarayonida juda muhim sanaladi. Shunday ekan, jamiyatimizda har bir millat hujjatchiligining o‘ziga xosligini barqarorlashtirish, rasmiy uslub tilining sofliqini saqlash va davlatlararo rasmiy munosabatlar negizini lisoniy jihatdan takomillashtirish kabi qator ilmiy-amaliy natijalarga erishish zaruriyati sezilmoqda.

Mamlakatimizda mustaqillikdan so‘ng, xorijiy tillarni o‘rganishga keng yo‘l ochildi. Xususan, fransuz tilini o‘rganish hozirgi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega. Ayniqsa, mamlakatimiz va Fransiya Respublikasi o‘rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy va ilmiy aloqalarning rivojlanib borayotganligi bu tilni yanada chuqurroq o‘rganish zarurligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, ikki mamlakat hamkorligining jadallashuvi rasmiy idoralararo yozishmalardan keng foydalanishni talab etmoqda. Shuningdek, rasmiy uslubning o‘ziga xosligini qiyosiy aspektlar doirasida tadqiq etish ham tilshunoslik borasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining asosiy manbalaridan biri ekanligini isbotlaydi. Shunday ekan, noqardosh tillar rasmiy uslubiga doir lingvopragmatik xususiyatlarni tadqiq qilish bu xususdagi ko‘plab muammolar yechimiga sabab bo‘lishi mumkin. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev barcha davlat idoralarida ish yuritish va hujjatlar aylanishini davlat tilida olib borish zarurligini ta’kidlaganida¹ o‘zbek tili va u asosdagi davlat hujjatchiligining

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son Farmoni//

kelgusidagi taqdiri haqida qayg'urgani aniq. Bu esa tilshunoslar oldida bir talay vazifalar turganligidan dalolatdir. Davlat siyosati darajasida rasmiy matnlarning imloviy, uslubiy, grammatik va lug'aviy jihatdan mukammalligiga qat'iy rioya qilish talabi² rasmiy matnlar tadqiqiga alohida e'tibor qaratish lozimligini isbotlaydi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, shuningdek, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-sonli "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-sonli "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" va 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tilshunoslik fani taraqqiyotining bir ko'rinishi hisoblangan pragmalingsvistika sohasi hozirgi kunga kelib, ko'plab tadqiqotchilarning diqqat markazini zabt etib ulgurgan. Bu jarayonda Ch.Morris, J.R.Serl, D.Vanderveken, N.Arutyunova, N.Formanovskaya, Sh.Safarov va A.Maslova³ kabi qator tilshunoslarning nutqiy birliklar va ularning pragmatik mazmuni borasidagi ilmiy-nazariy qarashlari nutqiy aktlar nazariyasi hamda nutqiy ta'sir muammolari yechimining tilsimi sifatida xizmat qilmoqda. Demak, tilda pragmatik hodisalarning asl mohiyatini tushunish uchun nafaqat lisoniy, balki falsafiy, mantiqiy va ijtimoiy xususiyatlarni ham anglash lozimligi inobatga olinsa, "rasmiy uslub pragmatikasi"ni shakllantirishda ham mantiqiylik va

<https://lex.uz/docs/-5058351> (murojaat sanasi 25.09.2025.)

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 22-yanvardagi "Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining ilmiy asoslanganlik darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 29-son Qarori// <https://lex.uz/uz/docs/-7331457> (murojaat sanasi 28.09.2025.)

³ Моррис Ч. У. Основания теории знаков // Семиотика: сборник переводов / под ред. Ю. С. Степанова. – М.: Радуга, 1983. – С. 37–89; Searle J.R., Vanderveken D. Foundations of Illocutionary Logic. – Cambridge: Cambridge University Press, 1985. – 237 p.; Арутюнова Н.Д. Истоки, проблемы и категории прагматики. // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1985. – Вып. 16. Лингвистическая прагматика. – С. 21–38; Формановская Н.И. Речевое общение: коммуникативно-прагматический подход. – Москва: Рус. яз., 2002. – 216 с.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – 300 б.; Маслова А. Введение в прагмалингвистику. – Москва: Флинта, 2019. – 149 с.

ijtimoiylik tamoyillariga tayanish tabiiydir. Shu nuqtayi nazardan, rasmiy-idoraviy diskurs masalalari tadqiqi semantik, funksional, kommunikativ, kognitiv va boshqa yondashuvlar kesimi asosida amalga oshadi.

O'tgan asrning ikkinchi yarmida jahon tilshunosligida amerikalik tilshunos A.Deyvis rasmiy uslubni o'rganishning yangicha tadqiqini boshlab bergan holda rasmiy matnlarni konseptual jihatdan tadqiq qildi⁴. Shundan so'ng, rasmiy diskursning zamonaviy tahlili barcha tillar kesimida asta-sekin shakllana boshladi. Biroq hozirgi vaqtda amerika tilshunosligida aynan "Rasmiy matnlar pragmatikasi" bo'yicha sanoqli tadqiqotlarni keltirish mumkin⁵. Roman tilshunoslari orasidan fransuz tili sohiblari rasmiy matnlar tahliliga ancha chuqur yondashgan holda ularga xos modallik hamda badiiylik kategoriyasi borasida, shuningdek, amaliy yondashuvlar asosida ko'plab ilmiy-amaliy izlanishlar olib bordi. K.Valle, N.Benmuhub, Y.Ferrandis, K.Shove, K.Delangenlar shular jumlasidandir⁶. Ushbu tadqiqotlar o'rganilganda ularning aksariyati qisman nazariy mezonlarga asoslangan holda amaliy jihatdan metodik ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, italyan tilshunoslari ham rasmiy-idoraviy hujjatlar tili va matniga nisbatan xuddi shunday qarashlar asosida yondashgan⁷.

So'nggi yillarda rus tilshunoslari bu sohada ancha ilg'or ekanliklarini namoyon etmoqda. Xususan, rasmiy matnlarni kommunikativ-pragmatik⁸, funksional-pragmatik⁹, kognitiv-pragmatik¹⁰ va leksik-stilistik¹¹ nuqtayi nazardan

⁴ Davies A. The concept of administrative style // Australian Journal of Politics and History. – 1966. – Vol. 12, № 1. – P. 43–53.

⁵ Bormann E. Symbolic Convergence Theory and communication in group decision-making // Communication and Group Decision-Making. – London, 1986. – P. 219–236; Kurzon D. The politeness of judges: the American and English judicial behaviour // Journal of Pragmatics. – 2001. – Vol. 33. – P. 61–85.

⁶ Vallée C. Modalités de la communication administrative. – Paris: Ecole supérieure de l'éducation nationale (ESEN), 2003. – 56 p.; Benmouhoub N. La rédaction administrative, principes, modèles et présentation des documents // Conférence-débat, 30 avril 2014. – Médiathèque de l'INSIM, Tizi-Ouzou. – P. 1–10; Ferrandis Y. La rédaction administrative en pratique. – Paris: Organisation, 2009. – 260 p.; Chauvet C. Le style administratif comme littérature // Les racines littéraires du droit administratif. – 2021. – P. 143–160; Delengaigne X. Les écrits administratifs: rédiger des lettres et des courriels dans la fonction publique territoriale. – Paris: Gereso, 2024. – 211 p.

⁷ Cortelazzo M. A., Pellegrino F. Semplificazione del linguaggio amministrativo: «Manuale di stile». – Padova: Comune di Padova, 1999. – 103 p.; Libertini R. Un manuale per la redazione degli atti amministrativi // Osservatorio sulle fonti. – 2010. – Fasc. 2. – P. 1–13.

⁸ Лазарева А. Коммуникативно-прагматические аспекты коммерческой корреспонденции как формы диалога: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2003. – 28 с.; Карабань Н. Коммуникативно-прагматические аспекты реализации категории вежливости в официально-деловом стиле русского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2006. – 28 с.; Алексеева А. Коммуникативно-прагматическая специфика официально-деловых документов: на материале обращений граждан в административные органы: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Омск, 2009. – 23 с.; Malyuga E. Communicative strategies and tactics of speech manipulation in intercultural business discourse // Language and Culture. – 2017. – № 1 (1). – P. 28–45; Поповская В. Коммуникативно-прагматический потенциал юридических текстов: фактор адресата (на материале текстов законов Российской Федерации): Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Челябинск, 2024. – 23 с.

⁹ Шведова И. Международный документ как прагматико-функциональная единица речевой коммуникации: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 2001. – 28 с.; Храменко Д. Функционально-прагматическая эволюция английского делового дискурса: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Москва, 2014. – 56 с.; Паршутина Г. Функциональные свойства глагольных средств со значением коммуникации в английском деловом дискурсе: динамико-системный подход: Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2020. – 198 с.

¹⁰ Драбкина И. Прагмалингвистические аспекты письменного делового общения: на материале англоязычных текстов контрактов и деловой корреспонденции: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самара, 2001. – 26 с.; Азнурьян Б. Когнитивно-прагматические особенности делового дискурса: Дисс. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2005. – 320 с.; Безнаева О. Когнитивно-прагматические особенности представления информации в деловом дискурсе: на материале англоязычной деловой корреспонденции:

tadqiq etishda ko‘plab ilmiy ishlar olib borilganligiga guvoh bo‘lamiz. Rasmiy-idoraviy matnlarni qiyosiy aspektda tadqiq qilish masalalari ham rus tadqiqotchilari uchun eng dolzarb sohaga aylanib ulgurgan. Ya’ni rus tili rasmiy uslubining lingvopragmatik va kognitiv xususiyatlari ingliz, fransuz, venger va arab tillari bilan taqqoslangan holda o‘rganilgan¹². Shuningdek, rasmiy uslubning monografik darajada o‘rganilishi ham uning lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlarini qamrab oladi¹³.

So‘nggi paytlarda o‘zbek tilshunoslaridan E.Aznaurova, Sh.Safarov, A.Nurmonov va M.Hakimovlarning¹⁴ lingvopragmatik qarashlari asosida ayrim rasmiy uslub matnlari tadqiqi ko‘zga tashlana boshladi. Xususan R.G.Karimov, D.E.Lutfullayeva va boshqalarning ilmiy izlanishlari “rasmiy uslub pragmatikasi”ning ilk namunalari sanaladi¹⁵. Biroq shu o‘rinda rasmiy-idoraviy hujjatlar masalasi o‘zbek tilshunosligida hozirga qadar nazariy va amaliy, xususiy va umumiy tamoyillar asosida tadqiq etilganligini qayd etish joiz. Xususan, M.Aminov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, N.Mahmudov, Y.Odilov, Z.Jo‘rayev va boshqalarning ilmiy-amaliy va uslubiy natijalari shular jumlasidandir¹⁶.

Darhaqiqat, tadqiqot mavzusining yuqorida keltirilgan o‘rganilganlik holati, ya’ni rasmiy uslubning qiyosiy aspektda, qolaversa, pragmalingvistika sohasi

Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Белгород, 2008. – 28 с.

¹¹ Потапова Н. Эвфемизмы в языке и в речи: на материале англоязычного делового дискурса: Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2008. – 165 с.; Казакова Е. Фразеологические средства формирования прагматики английского делового дискурса: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2012. – 28 с.

¹² Пономаренко В. Фразеологические единицы в деловом дискурсе: на материале английского и русского языков: Дисс. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2007. – 213 с.; Гече Ж. Деловые переговоры в лингвопрагматическом аспекте: на материале русско-венгерских переговоров: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2007. – 22 с.; Куксова Е. Функционально-прагматические и стилевые особенности делового письма: на материале французского и русского языков: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Белгород, 2015. – 23 с.; Шабан А. Средства вербализации вежливости в деловом дискурсе: универсальное и культурно-специфическое (на материале английского, арабского и русского языков). – Челябинск, 2020. – 25 с.

¹³ Кузин Ф. Культура делового общения. – Москва: Ось-89, 2002. – 280 с.; Кузнецов И. Деловое общение. Деловой этикет. – Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2005. – 431 с.; Кузнецов И. Современная деловая риторика. – Москва: Гросс Медиа, 2008. – 320 с.; Ерофеева Е.В. Прагматические аспекты речевых актов различной коммуникативной направленности в современном французском языке: Монография. – 3-е изд., испр. и доп. – Екатеринбург: Уральский государственный педагогический университет, 2023. – 287 с.

¹⁴ Азнаурова Э.С. Прагматика художественного слова. – Ташкент: Фан, 1988. – 121 с.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – 300 б.; Нурмонов А. Синтактик бирликларнинг прагматик томони. Танланган асарлар. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 246 б.; Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 176 b.

¹⁵ Каримов Р.Г. Тижорат хатларининг лингвопрагматик аспекти (инглиз ва ўзбек тиллари материаларида): Филол. фан. фалс. докт. (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2018. – 147 б.; Lutfullayeva D. E. and others. Pragmatic features of official texts and documents of the Uzbek language // ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies. – 2020. – Vol. 9. – № 7. – P. 27–34; Rasulova A., Shodiyeva A. Rasmiy nutqda presuppozitsiyaning ifodalanishi. // Образование и инновационные исследования. – 2023. № 7. – В. 107-111; Mannonova S. Tijoriy yozishmalarda kommunikativ-pragmatik intensiyalarining o‘xshash va farqli jihatlari // FarDU. Ilmiy xabarlar. – 2024. – № 30 (2). – В. 526–529.

¹⁶ Muxitdinova M., Abdullayeva N. Rasmiy uslubning diplomatik yozishmalar turi. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 1997. – 52 b.; Mahmudov N. va boshqalar. Davlat tilida ish yuritish: Akademik litseylar uchun darslik. – Toshkent: Cho‘lpon, 2010. – 128 b.; Jo‘rayev Z.M. Zamonaviy davlat ish yuritish nazariyasi, amaliyoti boshqaruvni me’yoriy ish hujjatlar bilan ta’minlash: O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2011. – 256 b.; Aminov M. va boshqalar. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – 528 b.; Lutfullayeva D.E. Mustaqillik davri rasmiy-idoraviy ish uslubi taraqqiyoti: Monografiya. – Toshkent: “Nodirabegim” nashriyoti, 2020. – 95 b.; Raxmonov U. Rasmiy-idoraviy uslubda matnlar yaratish ko‘nikmasini rivojlantirish mazmuni // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2023. – № 7. – В. 112–118.

doirasida tadqiq qilishning dastlabki qadamlari bizni fransuz va o‘zbek tillaridagi ariza va tavsiyanomalar matniga xos lingvopragmatik xususiyatlarni qiyosiy aspektda tadqiq qilishga undadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot Samarqand davlat chet tillar institutida o‘rganilayotgan “Qiyosiy tilshunoslikning kognitiv-pragmatik tahlili masalalari” mavzusidagi innovatsion ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi fransuz va o‘zbek tillaridagi ariza va tavsiyanomalar matnining kommunikativ-pragmatik komponentlarini tizimlashtirish va ularning nutqiy intensiyalarini lingvopragmatik jihatdan o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tilshunoslikda rasmiy uslub tadqiqiga nisbatan tarixiy jihatdan yondashgan holda idoraviy ish hujjatlari nomenklaturasi va ularning kommunikativ vosita sifatidagi nazariy asoslarini qiyosiy aspektda tavsiflash hamda shu orqali ariza va tavsiyanomalarning ijtimoiy-etiket mezonlarini aniqlashtirish;

fransuz va o‘zbek tillaridagi ariza va tavsiyanomalar matniga xos kommunikativ vaziyat bosqichlarini qiyosiy nuqtayi nazardan interpretatsiya qilish hamda ularda aks etgan pragmatik maqsadlarning kommunikativ verbal vositalarini belgilash;

fransuz va o‘zbek tillaridagi ariza va tavsiyanomalar matnining nutqiy aktlariga xos intensional xususiyatlarni qiyosiy nuqtayi nazardan tahlil qilish va shu orqali ularda aks etgan nutqiy akt turlarini voqelantiruvchi pragmatik vositalarni namoyon etish;

rasmiy muloqot jarayonidagi kommunikativ taktika va strategiya muammosini fransuz va o‘zbek tillaridagi ariza va tavsiyanomalar matni orqali o‘rganish hamda ularning kommunikativ maqsadni amalga oshirishdagi differensial va nodifferensial xususiyatlarini aniqlashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Fransiya va O‘zbekiston davlat muassasalari¹⁷ hamda ochiq internet manbalariga tegishli¹⁸, shuningdek, rasmiy-idoraviy ish yuritish uslubiga doir o‘quv-uslubiy manbalardagi tavsiyanoma va ariza namunalari olingan.

Tadqiqotning predmetini fransuz va o‘zbek tillaridagi idoraviy ish hujjatlarining qiyosiy aspektdagi lingvopragmatik tahlili va tavsifi tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Fransuz va o‘zbek tillaridagi idoraviy ish hujjatlarini tadqiq qilishda tavsifiy, pragmatik, qiyosiy, statistik, va kontekstual-situativ tahlil usullaridan foydalanildi.

¹⁷ Samarqand, Bombay va Lima shaharlarida joylashgan “Alliance Française” – fransuz tili va madaniyati markazlari; Fransiyaning Aix-en-Provence shahrida joylashgan “MV ARCHITECTES” arxitektura agentligi; “Tourisme Sainte-Marie” tashkiloti; Samarqand davlat chet tillar instituti; O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining Samarqand viloyati yoshlar ishlari boshqarmasi; Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali; O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Samarqand viloyati boshqarmasi.

¹⁸ [http://www.documents.fr](http://www.documents.fr;); <https://www.service-public.fr>; <https://www.lettre-utile.fr>; <https://www.legifrance.gouv.fr>; <https://lex.uz/acts/>; <https://sud.uz/>.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

fransuz va o‘zbek tillari hujjatchiligining tarixiy va hozirgi kundagi holati qiyosiy-tipologik jihatdan tavsiflangan hamda so‘rov, tavsiya qilish, ma‘lumot berish kabi kommunikativ vazifalar asosida shakllangan rasmiy hujjatlarning ariza va tavsiyanoma kabi turlari ijtimoiy-etiket mazmunini shakllantiruvchi rasmiy janrlar ekanligi dalillangan;

fransuz va o‘zbek tillaridagi ariza va tavsiyanomalar matniga xos kommunikativ vaziyatning muloqot usuli, maqsadi, ohangi kabi komponentlari va ularni ifodalovchi lisoniy va nolisoniy pragmatik vositalar kommunikantlar o‘rtasidagi ijtimoiy-me‘yoriy tamoyillar ifodasi ekanligi isbotlangan, boshlang‘ich va natijaviy pragmatik maqsad ijrosini voqelantiruvchi eksplisit va implisit omillar kommunikativ verbal jihatdan yoritib berilgan;

fransuz va o‘zbek tillaridagi ariza va tavsiyanomalar matnining lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlarida uchraydigan direktiv, konstativ, avtoritativ va komissiv nutqiy akt intensiyalari aniqlangan va shu orqali nutqiy akt turlarini voqelantiruvchi illokutiv fe‘llar, performativ qurilmalar kabi pragmatik vositalar ochib berilgan;

fransuzcha va o‘zbekcha ariza hamda tavsiyanomalar matnidagi kommunikativ taktika va strategiya muammosi adresantning adresatga ta‘sir ko‘rsatish tamoyiliga asoslanganligi va ularning neytral ohang, rasmiy qoliplashgan iboralar singari lingvopragmatik vositalari aniqlangan, buning natijasida, ushbu pragmatik tamoyilning ikkala til rasmiy-idoraviy uslubiga xos differensial kommunikativ-pragmatik va struktur xususiyatlari hamda nodifferensial semantik-pragmatik xususiyatlari namoyon etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

fransuz va o‘zbek tillaridagi ariza va tavsiyanomalar matnini lingvopragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilish orqali rasmiy uslub masalalarini atroflicha o‘rganishga ma‘lum darajada zamin yaratildi. Xususan, ikkala til rasmiy uslubiyatini qiyoslashdagi leksik, semantik, grammatik va diskursiv xususiyatlarni pragmalingvistika fani asosida tadqiq qilishning ilmiy va amaliy asoslari yaratilgan;

tadqiqot natijalaridan filologiya yo‘nalishidagi bakalavr talabalari hamda magistrantlar uchun qiyosiy tilshunoslik, stilistika, pragmalingvistika fanlari yuzasidan o‘quv-uslubiy adabiyotlar, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, magistrlik dissertatsiyalari, ilmiy maqolalar, ma‘ruza va seminar materiallari hamda turli sohalarda faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun rasmiy hujjatlarni to‘g‘ri tuzish bo‘yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqish jarayonida foydalanish tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada muammoning aniq tarzda yoritilganligi, mavjud xulosalarning qat‘iyligi, ilmiy-nazariy va amaliy ma‘lumotlarning ishonchli manbalarga asoslanganligi, aniq va ishga mos lisoniy metodlardan foydalangan holda tahlil qilinganligi, misollarning ishonchli manbalardan olinganligi hamda davlat tashkilotlarida qo‘llanilgan ariza va

tavsiyanomalarning asl nusxalaridan foydalanilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlardan olingan natijalarning o‘zaro muvofiqligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati 1) rasmiy uslub va uning tadqiqiga doir qarashlarning tarixiy, kommunikativ va ijtimoiy-etiket nuqtayi nazaridan talqin qilinishi; 2) rasmiy xizmat hujjatlari mazmunidagi kommunikativ vaziyat va pragmatik maqsadni voqelantiruvchi verbal vositalarning fransuz va o‘zbek tillari misolida aniqlanganligi; 3) fransuzcha va o‘zbekcha ariza hamda tavsiyanomalarga xos kommunikativ maqsadni amalga oshirishdagi kommunikativ taktika va strategiya muammosining qiyosiy aspektda o‘rganilganligi orqali belgilanadi. Bunday ilmiy-nazariy yondashuv fransuz va o‘zbek tillari rasmiy uslubining lingvopragmatik xususiyatlarini qiyosiy jihatdan tadqiq qilish nazariyasini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, olingan xulosalardan davlat muassasalarida ish yuritish jarayonida, xususan, rasmiy yozishmalar madaniyatini oshirishda, O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirishga doir rasmiy muloqotlarning lingvopragmatik standartlarini takomillashtirishda, fransuz va o‘zbek tillarida rasmiy hujjatlar tarjimasi va ularning semantik mosligini ta‘minlash jarayonida, qolaversa, CEFR asosida fransuz tilini bilish darajasini aniqlash sinovlarida unumli foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Fransuz va o‘zbek tillarida rasmiy-idoraviy hujjatlarni lingvopragmatik aspektda tahlil qilish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

hujjatchilikning tarixiy ildizlari va hozirgi kundagi holati, rasmiy-idoraviy ish hujjatlari nomenklaturasi hamda ariza va tavsiyanomalarning ijtimoiy-etiket belgilarini hosil qiluvchi tarkibiy mezonlar tadqiqi orqali olingan xulosalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2025-yil 15-oktabr kuni “Samarqand FM 105.2” radiokanalida jonli efirga uzatilgan “Kun mavzusi” eshittirishining navbatdagi son ssenariysini tayyorlashda asosiy manba sifatida foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokanalining 2025-yil 20-oktabrdagi № 01-07 / 347-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, mazkur eshittirishning mavzu doirasidagi ma‘lumotlar bazasi rasmiy-idoraviy hujjatlar borasidagi zamonaviy yondashuvlar asosida boyitilgan va eshittirish ssenariysi nafaqat amaliy rasmiy-idoraviy ish yuritish tajribasiga, balki zamonaviy ilmiy tadqiqotlar natijalariga tayangan holda shakllantirilgan;

fransuz va o‘zbek tillaridagi ariza va tavsiyanomalar matniga xos kommunikativ vaziyat turlari mavzusi bo‘yicha chiqarilgan ilmiy natijalardan Toshkent Fransuz Alyansining ta‘limiy va madaniy-ma‘rifiy faoliyatida amaliy vosita sifatida qo‘llanilgan (Toshkent Fransuz Alyansining 2025-yil 20-oktabrdagi № 187-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, idoraviy hujjatlardagi pragmatik maqsad ijrosini voqelantiruvchi boshlang‘ich, natijaviy, eksplisit va implisit omillar orqali Toshkent Fransuz Alyansi mashg‘ulotlarida fransuz tilini o‘rganuvchilarning rasmiy uslub bo‘yicha kompetensiyalarini rivojlantirish, o‘quvchilarning yozma

nutq madaniyatini yuksaltirish hamda madaniyatlararo muloqotni yanada boyitish uchun mustahkam nazariy va amaliy asos yaratilgan;

fransuz va o‘zbek tillaridagi ariza va tavsiyanomalar matnining lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlarida uchraydigan nutqiy akt intensiyalarining pragmatik vositalari yuzasidan olingan natijalar 2023-2024-yillarda amalga oshirilishi belgilangan AI-201704-sonli “Umumta’lim muassasalari bitiruvchilarining ona tili (o‘zbek tili) fani bo‘yicha malakasini baholash hamda 14 ta fandan test tizimini ishlab chiqish” nomli fundamental loyihada foydalanilgan (A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish ilmiy-tadqiqot institutining 2025-yil 16-oktabrdagi № 03-17-09-976-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, nutqiy akt turlarining direktiv, konstativ, avtoritativ va komissiv intensiyalari bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar mazkur loyiha materiallarining takomillashtirilishiga xizmat qilgan;

fransuz va o‘zbek tillarida yozilgan ariza va tavsiyanomalar matnida qo‘llanilgan kommunikativ strategiya va taktikalarning adresant-adresat munosabatiga ta’sir ko‘rsatish tamoyillari bo‘yicha aniqlangan differensial va nodifferensial xususiyatlar haqidagi ilmiy xulosalardan 2022–2024-yillarda amalga oshirilishi mo‘ljallangan hamda Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi va AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtirilgan SUZ80020GR0039-raqamli “English Access Microscholarship Program” nomli xalqaro loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 24-oktabrdagi № 3293/02-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, rasmiy-idoraviy uslub bo‘yicha o‘quv adabiyotlari, darsliklar, monografiyalar yaratish, shuningdek, rasmiy-idoraviy hujjatlar tilining funksional imkoniyatlarini tahlil etishga doir ilmiy ishlanmalarni optimallashtirish uchun amaliy ma’lumotlar asosi shakllantirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishda tavsiya etilgan milliy nashrlarda 5 tasi, yana 3 tasi xorijiy jurnallarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, boblar bo‘yicha xulosalar, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 148 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti, predmeti va materiali aniqlangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi

asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilishi, aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar, natijalar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning 1-bobi "**Rasmiy uslub va uning nazariy asoslari**" deb nomlanib, 3 ta bo'limni o'z ichiga oladi. Unda rasmiy uslubning fransuz va o'zbek tillaridagi tarixiy ildizlari hamda ularning zamonaviy nomenklaturasi tavsiflangan holda tadqiqotning ilmiy-nazariy asoslari bayon qilingan. Shu bilan birga, ariza va tavsiyanomalarga xos ijtimoiy-etiket qoidalari o'rganilgan.

Bobning 1-fasli "**Rasmiy uslubning o'rganilish tarixi**" sarlavhasi ostida bayon etilgan. Ushbu uslubning shakllanishi qadimgi yozma yodgorliklar, yorliqlar, tosh bitiklar hamda ilk qonunlarning yaratilishi bilan bog'liq. Biroq uni tilshunoslikning asosiy sohasi sifatida o'rganish XX asr o'rtalarida boshlangan. U tilshunoslik, uslubshunoslik fanida alohida tadqiqot obyekti sifatida ma'lum darajada o'rganilgan. Har bir yondashuvda rasmiy uslubning vazifasi, struktur jihatlari va bu uslubga xos xususiyatlar turfa fikrlar asosida turlicha tahlil qilingan. Xususan, ularda rasmiy-idoraviy matnlar tilini leksik-grammatik jihatdan tahlil qilishga hamda lingvistik komponentlarni aniqlashga harakat qilingan. Rasmiy uslub doirasidagi til me'yorlari, sintaktik tuzilmalar va standartlashgan iboralar kabi ko'plab xususiyatlar o'rganib kelingan. Tilshunoslarning ko'p yillik izlanishlariga qaramay, rasmiy uslub doirasida yozilgan hujjatlar, diplomatik va tijorat yozishmalari lingvistikada yetarli darajada tadqiq qilinmagan. Darhaqiqat, rasmiy uslub doirasida ish olib borayotgan rus tilshunoslaridan biri V.Jelamskaya ta'kidlaganidek, tilshunoslarning bu masalaga yuqori darajada qiziqish bildirmasligiga asosiy sabab – bu sohaning murakkabligidir, chunki, rasmiy hujjatlarni chuqur tahlil qilish, ularning lisoniy xususiyatlarini turli lingvistik metodlar orqali tadqiq qilish uchun nafaqat tilshunoslik, balki huquqshunoslik va iqtisodiyot kabi boshqa sohalardagi bilim va ko'nikmalarga ham ega bo'lish zarur.¹⁹

Amerikalik tilshunos A.Deyvis rasmiy matnlarni konseptual jihatdah tadqiq qilgan holda rasmiy uslubni o'rganishning yangicha tadqiqini boshlab berdi²⁰. Shundan so'ng, rasmiy diskursning zamonaviy tahlili barcha tillar kesimida asta-sekin shakllana boshladi. Fransuz tilida rasmiy hujjatlar uslubini R.Katrin o'zining "Le style administratif" nomli kitobida birinchilardan bo'lib tadqiq etgan. Fransuz tadqiqotchilarining bu bo'yicha olib borgan izlanishlari tahsinga sazovor. Biroq ular rasmiy hujjatlarning umumiy belgilarini sanab o'tish va ularga qisqacha ta'rif berish bilan kifoyalangan.

Ingliz tilshunoslari ham bu borada bir qancha tadqiqot ishlari olib borgan. Masalan, H.E.Drach rasmiy ish uslubini soddalashtirishni, ya'ni hujjatlar imkon qadar norasmiy bo'lish kerakligini va bugungi davr norasmiylikni talab qilishi hamda ish munosabatlarida do'stona va insoniy munosabatlarni ham qo'llab-

¹⁹ Zhelamskaya V.A. Denominations of business documents (using the material of French and Italian language) // Scientific Notes of Orel State University. – 2014. – Vol. 1, № 57. – P. 224–230.

²⁰ Davies A. The concept of administrative style // Australian Journal of Politics and History. – 1966. – Vol. 12, № 1. – P. 43–53.

quvvatlash kerakligini ta'kidlaydi.²¹ Bizningcha, bu holat ingliz tili rasmiy uslubi sintaksisining ancha murakkabligi bilan bog'liq.

O'zbek tili davlat tili maqomiga erishgach, o'zbek tilida rasmiy hujjatlar yaratish jarayoni tezlashdi, ayni shu davrda rasmiy uslubda ish yuritish sohasida yo'llanma va yo'riqnomalarga ehtiyoj sezila boshlandi. 1990-yilda "O'zbek tilida ish yuritish" kitobi²² nashr etildi va bu o'zbek tili hujjatchilik sohasi rivojini belgilab berdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shuningdek, ushbu izlanishlar nafaqat an'anaviy tarzda leksikologiya, stilistika va sintaksis kabi fanlar doirasida, balki lingvopragmatika, sotsiolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik kabi sohalarda ham dunyoning turli tillari misolida tadqiq qilish boshlanganini alohida ta'kidlash joiz.

Bobning navbatdagi bo'limi **"Rasmiy-idoraviy ish hujjatlari nomenklaturasi va uning ilmiy-nazariy asoslari"** deb nomlanadi. Rasmiy uslub zamonaviy tilshunoslikda alohida funksional uslub sifatida o'rganilar ekan, u rasmiy munosabatlar sohasiga taalluqli hujjatlar va nutqning yozma va og'zaki shakllarida namoyon bo'ladi. Ushbu uslub davlat boshqaruvi, huquqiy faoliyat, diplomatik yozishmalardan tortib, ish yuritish va ma'muriy yozishmalarda ham muhim kommunikativ vosita sifatida xizmat qiladi. Boshqaruv jarayonining murakkabligi va serqirraligi sababli rasmiy-idoraviy ish hujjatlari xilma-xil va miqdor jihatidan ham juda ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning yo'nalishi, hajmi, shakli va bir qator o'ziga xos xususiyatlari bir-biridan farqlanib turadi. Shuning uchun rasmiy doirada har bir ish qog'ozni tayyorlashda bir qator lisoniy xususiyatlarga ham e'tibor berish zaruriy talablardan biri sanaladi. Bunday xususiyatlarni o'rganmay turib, sifatli ish hujjatlarini shakllantirish mumkin emas. Shunday ekan, rasmiy-idoraviy hujjatlar nomenklaturasi va turlarini tasniflash bunday hujjatlar matnini tahlil qilishning dastlabki bosqichi sifatida qarash mantiqan to'g'ri hisoblanadi, chunki har qanday adresat hujjatning nomidan kelib chiqqan holda u bilan tanishishni boshlaydi. Shundagina, adresatda hujjat matni to'g'risida ilk tasavvur paydo bo'ladi.

Tadqiqot davomida fransuzcha rasmiy uslub hujjatlari nomenklaturasi tasniflangan holatga duch kelmadik. Chunki ular tomonidan qilingan tasniflar bir tomonlama, ya'ni rasmiy uslubning faqat quyi qismlari alohida-alohida o'rganishga bag'ishlangan. Masalan, R.Katrin o'zining "Le style administratif" kitobida ma'muriy hujjatlar deganda, boshqaruv sohasida ishlatiladigan barcha hujjatlarni nazarda tuta olmasligini va iqtisodiy rivojlanish avj olayotgan bir vaqtda bunday hujjatlarning muttasil ko'payib borayotganligi sababli faqat rasmiy xususiyatga ega an'anaviy hujjatlarni o'rganishni taklif qiladi.²³

O'zbek hujjatshunosligida rasmiy-idoraviy ish hujjatlarining eng mukammal va keng qamrovli tasnifi M.Aminov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, N.Mahmudovlarga tegishli ekanligini ko'rish mumkin.²⁴ Shu kabi manbalarni

²¹ Drach H.E. American business writing. – New York: American Book Company, 1959. – P. 23.

²² Махмудов Н., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Аминова М. Ўзбек тилида иш юритиш. – Тошкент: Ўзбек Совет энциклопедияси Бош редакцияси, 1990. – 580 б.

²³ Catherine R. Le style administratif. – Paris: Albin Michel, 2005. – P. 129.

²⁴ Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – B. 21.

solishtirish natijasida fransuz va o‘zbek tillari ma’lumot-axborot hujjatlarining quyidagi nomenklaturasi aniqlandi va ishda ulardan *ariza* va *tavsiyanomalar* tahliliga alohida e’tibor qaratildi:

1.3-jadval.

Ma’lumot-axborot hujjatlari nomenklaturasi.

O‘zbek tilida:	Fransuz tilida:	O‘zbek tilida:	Fransuz tilida:
1.Ariza	Demande	9.Ishonchnoma	Procuration
2.Tilxat	Réçu	10.Ma’lumotnoma	Certificat
3.E’lon	Annonce	11.Tavsifnoma	Référence
4.Hisobot	Rapport	12.Tavsiyanoma	Recommandation
5.Bayonnoma	Compte-rendu	13.Tarjimai hol	Autobiographie
6.Bildirishnoma	Rapport	14.Shaxsiy ma’lumotnoma	Curriculum vitae
7.Vasiyatnoma	Testament	15.Tushuntirish xati	Lettre explicative
8.Dalolatnoma	Acte	16. Bayonnoma (yuridik)	Procès-verbal

Birinchi bobning so‘nggi fasli “**Ariza va tavsiyanomalar – rasmiy muloqotning ijtimoiy-etiket shakllari**” nomi ostida ariza va tavsiyanomalarning shaxsiy va jamoaviy ehtiyojlarni ifodalashdagi struktur-semantik va kommunikativ xususiyatlari tahlilini o‘z ichiga oladi. Rasmiy uslubda yoziladigan va amaliyotda eng ko‘p qo‘llaniladigan ish qog‘ozlaridan biri bu – arizalardir. Ular muayyan muassasa yoki mansabdor shaxs nomiga yoziladigan *iltimos, taklif, shikoyat* mazmunidagi rasmiy murojaat shakli. Har bir ariza muayyan maqsad va vazifaga qaratilgan bo‘ladi. Fransuz tilida arizalar *demande, lettre de réclamation, requête, plainte* kabi nomlar bilan ataladi. Bu atamalarining barchasi biror narsaga erishish yoki norozilikni ifodalashga qaratilgan kommunikativ harakatlardir. Ular fransuz tadqiqotchilari tomonidan kommunikativ maqsadi va murojaat o‘rniga ko‘ra quyidagicha tasniflanadi: *Demande de documents; Etat civil; Mariage; Permis; Préfecture (Mairie); Travaux*. O‘zbek tilida esa quyidagi mezonlarga asosan ustunlik qiladi: *iltimos, shikoyat, taklif, da’vo* arizalari.

Fransuz tilidagi arizalar quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘ladi: 1) *coordonnées de l’expéditeur*, 2) *coordonnées du destinataire*, 3) *lieu, date*, 4) *objet*, 5) *forme d’appel*, 6) *corps de la lettre*, 7) *formule de politesse*, 8) *signature*. O‘zbek tilida yoziladigan arizalarning asosiy qismlari esa: 1) ariza yo‘llangan muassasa nomi / mansabdor shaxs FIO; 2) ariza yozuvchining turar joyi, vazifasi, FIO; 3) rasmiy hujjat nomi; 4) hujjatning asosiy matni; 5) arizaga ilova qilinadigan hujjatlar ro‘yxati; 6) ariza yozuvchining imzosi va FIO; 7) ariza yozilgan vaqt. Bu kabi tarkibiy qismlarni tahlil qilish ularga xos pragmatik maqsad va kommunikativ vaziyatning vujudga kelishi hamda ularni ifodalovchi lingvosemantik vositalarni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, *adresant* va *adresat* haqidagi ma’lumotlar, *adresantning maqsadi, kommunikativ*

strategiyasi, taktikasi va shu kabilar arizaning tarkibiy qismlarida berilayotgan axborotlar vositasida namoyon bo‘ladi. Biz bu haqda ishning ikkinchi va uchinchi boblarida batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

Tadqiqotimizning ikkinchi tahlil materiali sifatidagi *tavsiyanomalar* ham muayyan kommunikativ vaziyat doirasida amalga oshiriladi. Aynan mana shu kommunikativ vaziyatning xususiyatlari so‘zlovchini muayyan nutqiy aktga va ushbu aktlardan kelib chiqqan holda tinglovchini ma‘lum bir harakatga undaydi. Tavsiyanomalardan ko‘zlangan kommunikativ maqsad yagona, ya‘ni o‘z nomidan ma‘lumki (*tavsiyanoma, lettre de recommandation*), ma‘lum bir nomzodni tavsiya qilish. Ularning faqat mazmuniy ifodasi turlicha bo‘lishi mumkin.

Ariza va tavsiyanomalarning tarkibiy komponentlari muloqot modeli bilan qisman mos keladi. Bunday model birinchi marta rus va amerika tilshunos olimi R.Yakobson tomonidan taklif qilingan, ya‘ni adresant – xabar – adresat – kontekst – aloqa - kod.²⁵ Shunga ko‘ra, ariza va tavsiyanomalar ham aniq, qisqa va tushunarli tarzda yozilishi talab qilinadi. Zero, ariza va tavsiyanomalarning tarkibiy komponentlari umummulqot modeli bilan mos kelar ekan, ular ijtimoiy-madaniy omillarni inobatga olgan holda alohida kommunikativ maqsadga yo‘naltiriladi va matn mazmunini to‘g‘ri tushunishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning 2-bobi “**Fransuz va o‘zbek tillari rasmiy matnlarining kommunikativ-verbal vositalari tahlili**” deb nomlanib, 4 ta bo‘limni o‘z ichiga oladi. Unda tavsiyanoma va arizalar matnidagi adresant va adresat o‘rtasidagi ijtimoiy-me‘yoriy tamoyillar hamda pragmatik maqsadning intensional xususiyatlari, ya‘ni rasmiy muloqotning boshlang‘ich va natijaviy intensionalariga doir masalalar tahlili bayon qilingan.

Bobning 1-fasli “**Arizalar matniga xos kommunikativ vaziyatning pragmatik interpretatsiyasi**” sarlavhasi ostida arizalar matnining adresatga biron bir axborotni yetkazish jarayonidagi kommunikativ xususiyatlari tahlil qilingan. Kommunikativ vaziyat tushunchasini sotsiolingvistik aspektda o‘rgangan Y.Yerofeyeva uni “biz dunyoga boqadigan oyna” deb ta‘riflaydi va dunyo modelini, jumladan, til modelini ham aniq kommunikativ vaziyatga mos ravishda tuzish kerakligini qayd etadi.²⁶ Shunga asosan, fransuz va o‘zbek tillaridagi arizalarga xos kommunikativ vaziyat komponentlari tahlil qilinsa ularning quyidagi turlari muhim sanaladi: so‘zlovchi, tinglovchi, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabat hamda muloqot ohangi, maqsadi, vositasi, usuli, va joyi. Ular kommunikativ vaziyatning ijtimoiy va pragmatik jihatlarini namoyon etadi va arizalarning adresant maqsadlariga muvofiqligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Muloqot ishtirokchilarining aloqa vaziyatidagi o‘zaro ta‘siri bir qator bosqichlarda amalga oshadi. Ushbu bosqichlar muloqot jarayonining mantiqiy rivojlanishi va samaradorligini ta‘minlashga xizmat qiladi. 1) aloqa o‘rnatish bosqichi. Ma‘lumki, fransuzlar bu bosqichda adresat bilan aloqa o‘rnatish uchun

²⁵ Яковсон Р.О. Избранные работы. – Москва: Прогресс, 1985. – С. 376.

²⁶ Ерофеева Е.Б. Коммуникативная ситуация и идиомы национального языка // Социо и психолингвистические исследования. – 2011. – С. 213–227.

odob va murojaat shakllari hamda o'zini tanishtirish vositalaridan foydalanadi: *Monsieur le Directeur, En tant qu'étudiant à l'Université de Nanterre, je me permets de vous adresser cette demande...*; o'zbeklar esa o'zini rasmiy ohangda tanishtirmaydi va adresatga to'g'ridan to'g'ri murojaat qilmaydi, ya'ni "Janob ..." kabi jumlaning qo'llamaydi: *Men, Toshkent davlat pedagogika universiteti filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi Ismoilov Diyorbek...* 2) Mavzuni rivojlantirish bosqichi. Bunda murojaat qilinayotgan shaxsga nima uchun ariza yozilayotgani izohlanadi. Uni arizaning semantik yadrosi deb nomlash mumkin. Aynan shu qismda adresant o'zining asosiy pragmatik maqsadini ifodalaydi. 3) Dialogni tugatish bosqichi. Bu bosqichda ariza egasi minnatdorchilik bildiradi, javob kutayotganiga ishora qiladi va ariza so'ngida imzo qo'yadi. Fransuzcha arizalarning bu qismida adresatga minnatdorchilik bildirish va hurmat ko'rsatishni ifodalovchi murakkab va rasmiy mazmundagi yakunlovchi qoliplashgan qurilmalardan keng foydalaniladi: *En vous remerciant par avance, je vous prie d'agr eer, Monsieur le Doyen, l'expression de mes salutations distingu ees*. O'zbekcha arizalarda so'ramoq fe'li bilan yakunlanadi va ohang qat'iy bo'ladi. Biroq, ushbu fe'l qisman xushmuomalilik taktikasini ham aks ettiradi²⁷. Arizaning ayrim turlarida, ayniqsa da'vo arizalarida arizaga qo'shimcha ilovalar ro'yxati ham keltiriladi. Ariza yakunida imzo, sana va arizachining ism-familiyasi yoziladi.

Navbatdagi bo'lim "**Tavsiyanomalar matnidagi adresant va adresat o'rtasidagi ijtimoiy-me'yoriy tamoyillar ifodasi**" deb nomlanadi. Kommunikativ vaziyatda asosiy tarkibiy qismlar muloqot ishtirokchilari – adresant va adresat hisoblanadi. Ular muloqot ishtirokchilari sifatida ikki xil jihatni birlashtiradi: 1) o'z xalqi, madaniyati va ijtimoiy muhitiga xos umumiy belgilarni, 2) o'zlariga xos bilim, fikr, qiziqish, baho va munosabatlarni aks ettiradi. Adresant muloqotga kirishish sababini anglagan holda, adresat haqida ma'lum bir tasavvurga ega bo'ladi va u bunday tasavvur asosida umumiy bilimlardan foydalanadi, mavzuni aniqlaydi va o'z fikrlarini ifodalash uchun mos uslubiy shaklni tanlaydi.

Fransuz va o'zbek tillaridagi tavsiyanomalar matnida mavjud 11 xil kommunikativ vaziyatlardan 1) so'zlovchi va 2) tinglovchi subyektlari, 3) muloqot maqsadi, 4) muloqot usuli, 5) muloqot vositasi, 6) muloqot joyi va 7) mavzuni rivojlantirish vazifalari ikkala tilda ham bir xil tarzda qo'llanilib, ularning voqelanish vositalari ham deyarli nodifferensialligi bilan ko'zga tashlanadi. Qolgan 1) muloqotning emotsional ohangi 2) so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi o'zaro munosabat, 3) aloqa o'rnatish va 4) muloqotni tugatish funksiyalarining voqelanish komponentlari esa har ikkala tilda o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Tahlil qilingan tavsiyanomalar matnidagi kommunikativ taktikalar yordamida aniqlangan qiyosiy tahlil natijasini quyidagi jadval orqali ikkala til misolida taqqoslash mumkin.

²⁷ Шабан А. Средства вербализации вежливости в деловом дискурсе: универсальное и культурно-специфическое (на материале английского, арабского и русского языков): Автореф.дисс. ... канд.фил.наук. – Челябинск, 2020. – С.15.

2.4-jadval.

Kommunikativ vaziyat komponentlari va ularning ikkala tildagi ifoda vositalari.

№	Komponent turlari :	Kommunikativ vaziyatning ifoda vositalari	
		Fransuzcha tavsiyanomalarda:	O‘zbekcha tavsiyanomalarda:
1.	So‘zlovchi	Muassasa rahbari, bo‘lim boshlig‘i va boshqalar.	
2.	Tinglovchi	Komissiya, hakamlar hay‘ati va boshqalar.	
3.	O‘zaro munosabat	Munosabat iyerarxik va xushmuomalalikni ifodalovchi lisoniy birliklar mavjud.	Munosabat neytral va ochiq rasmiy xarakterga ega.
4.	Muloqot Ohangi	Rasmiy, muloyim va diplomatik, ba‘zan neytral.	Rasmiy, ochiq, aniq, ko‘p holatlarda neytral.
5.	Muloqot maqsadi	Nomzodni tavsiya qilish, adresatni nomzod foydasiga ijobiy qaror qabul qilishiga to‘g‘ridan to‘g‘ri, ammo xushmuomalalik bilan undash.	
6.	Muloqot vositasi	Sof adabiy til va rasmiy uslub vositalari.	
7.	Muloqot usuli	Rasmiy hujjat yozma va qog‘oz shaklida topshiriladi.	
8.	Muloqot joyi	Muayyan joy mavjud emas.	
9.	Aloqa o‘rnatish	Murojaat shakllari(<i>Madame, Monsieur</i>)dan foydalaniladi.	Maxsus murojaat shakllari mavjud emas.
10.	Mavzuni rivojlantirish	Nomzodning malakasi, tajribasi, shaxsiy fazilatlarini batafsil, ammo qisqa va lo‘nda tarzda yoritiladi. Shunga asosan, nomzod qat‘iyan tavsiya etiladi.	
11.	Muloqotni tugatish	Rasmiy yakunlovchi iboralar mavjud: <i>Je vous prie d’agr�eer... , Veuillez recevoir mes salutations distingu�ees.</i>	Rasmiy yakunlovchi va xushmuomalalikni ifodalovchi iboralar mavjud emas.

O‘zbek va fransuz tilidagi tavsiyanomalar matnini qiyosiy tahlil qilish jarayonida ayrim differensial farqlar mavjudligi seziladi. Masalan: 1)“*Tavsiyanoma*” so‘zidan oldin tavsifnomalardagi kabi tavsiya qilinayotgan nomzod haqida qisqacha ma’lumotlar beriladi. Fransuzcha tavsiyanomalarda esa bunday holat kuzatilmaydi; 2)fransuzcha tavsiyanomalarda *sana* majburiy tarkibiy qismlardan biri sanalsa, o‘zbek tilidagi tavsiyanomalarda esa *sana* ko‘rsatilmaydi; 3)o‘zbek tilida rasmiy yakunlovchi va xushmuomalalikni ifodalovchi iboralardan foydalanilmaydi, fransuz tilida esa tavsiyanomalar bunday iboralarsiz aslo yozilmaydi, negaki ular nafaqat tavsiyanomalar, balki deyarli barcha turdagi rasmiy hujjatlar matnining zaruriy va asosiy tarkibiy komponentlaridan biri hisoblanadi; 4)o‘zbek tilida adresatga yuzlanish maqsadida maxsus murojaat shakllari qo‘llanilmaydi, fransuz tilida esa *Madame, Monsieur* singari maxsus murojaat shakllaridan foydalanish muhim sanaladi.

Bobning keyingi fasli “**Arizalar muallifining pragmatik maqsadiga xos intensional xususiyatlar**” deb nomlangan holda arizalardagi murojaat mazmunini aks ettiradi. Arizalar odatda ishga, o‘qishga qabul qilish kabi shaxsiy yoki kasbiy maqsadlarni ko‘zlagan holda yoziladi. Shu tufayli, ular *monointensional*, ya’ni *bir maqsadli* hujjatlar sanaladi. Ammo, ilmiy tadqiqot davomida shuning guvohi bo‘ldikki, ba’zi holatlarda arizalar ham *poliintensional*, ya’ni *ko‘p maqsadli*

xususiyatlarni namoyon qilishi ham mumkin. Rasmiy uslubdagi nutqiy aktlarda arizalarda keltirilayotgan masalalarning miqdoriga qarab, adresantning pragmatik maqsadi ham oshib boraveradi va bu arizalarning *bir maqsadli* yoki *ko'p maqsadli* ekanligini belgilashga asos bo'ladi.

Bundan tashqari, arizalar matnida pragmatik maqsadlar eksplisit yoki implisit tarzda ifodalanishi mumkin. Tadqiqot doirasida bir qancha ariza turlari o'rganildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, pragmatik maqsadning ifodalanish tamoyillari barcha hollarda, ya'ni turli mazmundagi arizalarda o'xshashdir. Ularda ham 1) *adresant maqsadi*, 2) *matnning tuzilishi*, 3) *stilistik vositalar* va 4) *mazmunning kommunikativ maqsadlarga moslashuvi* kabilar boshqa arizalardagi singari bir xilligi bilan o'ziga xoslik kasb etadi.

Pragmatik maqsad O.G.Pochepsov tasnifi asosida boshlang'ich va natijaviy intensiyalarga bo'linadi.²⁸ Arizalar matnida ham muallifning dastlabki maqsadi boshlang'ich intensiyada namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, muallif erishmoqchi bo'lgan natijalar natijaviy intensiya orqali ifodalanadi. Natijaviy maqsad esa boshlang'ich niyatga erishish jarayonida ko'zlangan natijani aks ettiradi. Boshlang'ich va natijaviy intensiyalar bir-birini to'ldirib, hujjatning umumiy mazmuni va asosiy maqsadini yanada tushunarli qiladi. Umuman olganda, boshlang'ich intensiya – muallifning asosiy niyatini ifodalasa, natijaviy intensiya – shu niyatga erishishdan kutilayotgan natijani ko'rsatadi.

Ushbu bobning so'nggi bo'limi **“Tavsiyanomalardagi pragmatik maqsadning boshlang'ich va natijaviy intensiyalari”** deb nomlanadi. Tavsiyanomada muallif yakka nomzod haqida ma'lumot berish va uni tavsiya etish kabi boshlang'ich va natijaviy intensiyali maqsadlarni namoyon etadi. Tilshunos olim Sh.Safarov ta'kidlaganidek, bunday intensional tahlil nutqiy aktning mazmunini to'liqroq anglash imkonini beradi.²⁹ Tavsiyanoma matnida nutqiy muloqot maqsadi ikki xil sathni ham ifodalashi mumkin, ya'ni nomzod haqidagi ma'lumotlar axborot uzatish ko'rinishida bo'lsa, nomzodni tavsiya qilish esa kommunikativ-pragmatik maqsadni tashkil etadi. Bundan tashqari, muallif adresatga ta'sir ko'rsatishga ham harakat qiladi va bu jarayon J.Ostin ta'biri bilan aytganda performativ xarakter kasb etadi.³⁰ Masalan, fransuzcha tavsiyanomalarda uchraydigan *Je peux attester avec une grande conviction qu...* va *... Je la parraine ainsi vivement pour le stage* kabi jumlar performativ tuzilmalarni hosil qiladi. Adresant bu orqali adresatdan ijobiy javob kutadi (*...espère recevoir une réponse favorable de votre part*). Bu - muallifning natijaviy maqsadi sanaladi.

O'zbek tilidagi tavsiyanomalar yakunida adresant performativ xususiyatga ega bo'lgan *“ishonch bildirmoq”*, *“tavsiya qilmoq”* qurilmalaridan foydalanadi. Bunda ishonch bildirish ishonch uyg'otuvchi akt sifatida namoyon bo'lsa, *tavsiya qilish* tavsiyanomaning asosiy illokutsion aktini ifodalaydi. Demak, nomzod haqidagi barcha ijobiy axborotning berilishi boshlang'ich pragmatik maqsadni ifodalasa, yuqoridagi axborotlar asosida adresatni nomzodni tanlashga undash asosiy natijaviy maqsad sanaladi. Quyidagi jadvalga qarang :

²⁸ Почепцов О.Г. Основы прагматического описания предложения. – Киев: ВШ, 1986. – С. 75.

²⁹ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 74.

³⁰ Остин Дж. Л. Три способа пролить чернила. Пер.Т.Кирущенко. Философские работы. – СПб.: Алитея, 2006. – С.302-318.

Pragmatik maqsadlarni voqelantiruvchi semantik vositalar.

Pragmatik xususiyatlar:	Fransuzcha tavsiyanomalarda:	O'zbekcha tavsiyanomalarda:
Boshlang'ich maqsad	Nomzodning ijobiy sifatlari, kasbiy tajribasi, yutuqlari haqida umumiy axborot berish.	
Natijaviy maqsad	Nomzodni tavsiya etish va shu orqali adresatni nomzod yuzasidan ijobiy qaror qabul qilishga undash.	
Eksplisit ifodalar	Qat'iy tavsiyani ifodalovchi <i>Je recommande vivement ...</i> iborasi.	Qat'iy tavsiyani ifodalovchi: <i>... tavsiya qilaman</i> iborasi.
Implisit ifodalar	Lisoniy vositalar tagma'nolarida aks etgan yashirin tushunchalar.	

Tavsiyanomalar matnida boshqa rasmiy-idoraviy ish hujjatlari matnidagi kabi uzatilayotgan axborotlar va maqsadlar aniq, oshkora va ba'zi holatlarda yashirin tarzda ifodalanadi. Bu esa adresat va muallif o'rtasidagi to'g'ri muloqot va aloqani o'rnatishga yordam beradi. Natijada, tavsiyanomalarning pragmatik maqsadi va performativ xarakteri rasmiy muloqotning muhim vositalariga aylanishi mumkin. Umuman olganda, fransuz va o'zbek tillaridagi tavsiyanomalar rasmiy-idoraviy ish hujjatlarining funksional jihatdan boyligini va mualliflarning maqsadli yondashuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning 3-bobi "**Fransuz va o'zbek tillaridagi ariza va tavsiyanomalarda nutqiy aktlar muammosi**" deb nomlanadi va 4 bo'limni o'z ichiga oladi. Tavsiyanoma va arizalar matnidagi nutqiy akt turlarining voqelanishi hamda ularda ifodalangan kommunikativ taktika va strategiya masalalariga doir pragmatik xususiyatlar tahlili mazkur bobning asosini tashkil etadi.

Bobning dastlabki bo'limida "**Tavsiyanomalar matnida nutqiy akt turlarining voqelanishi**" sarlavhasi ostida turli nutq vaziyatlari tahlil qilingan.

Nutq aktlari ma'lum bir vazifalarga ega bo'lib, murojaat, buyruq, taklif, rad etish, iltimos kabi kommunikativ maqsadlar omili sifatida xizmat qiladi. Nutqda lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlar o'zaro bir-biriga bog'liq holda namoyon bo'ladi. Rasmiy-idoraviy ish hujjatlari ham nutqning bu kabi pragmatik xususiyatlariga boy manbalaridan biri sanaladi. Tadqiqot davomida "Lions Club de France", "Mard o'g'lon" va "Zulfiya" davlat mukofotlari nomzodlariga berilgan tavsiyanomalar tahlili rasmiy uslubga xos nutqiy aktlar tavsifini yaratishga yordam berdi. Xususan, **lokutiv akt** axborotni aniq va tushunarli yetkazishga xizmat qilar ekan, adresant u orqali o'z fikrini to'g'ri tushuntirishga erishadi, ya'ni muallif tavsiyanomada nomzodning kasbiy va shaxsiy fazilatlarini aniq bayon qilish imkoniyatidan keng va samarali foydalanadi. **Illokutiv akt** esa adresantning kommunikativ-pragmatik maqsadlarini ochib berishga xizmat qiladi. Bu jarayon quyidagi illokutiv fe'llar orqali aks etadi: *buyurmoq (ordonner, enjoindre)*, *ogohlantirmoq (prévenir, avertir)*, *maslahat bermoq (consulter, conseiller)*, *taqiqlamoq (interdire, défendre)*, *taklif qilmoq (proposer)*, *tahdid qilmoq (menacer)*, *talab qilmoq (exiger)*, *hukm qilmoq (condamner)*, *ehtiyot bo'lmoq (être précaution)* va *xafa bo'lmoq (s'offenser, se vexer)*. Tavsiyanomalar matnida yuzaga chiqadigan eng muhim illokutiv nutqiy aktlardan yana biri bu *ishontirish*

aktidir. Bunda adresant o‘zining ishonchli kishi ekanligi va unga ishonish mumkinligini ko‘rsatadi: “*Je me tiens à votre disposition pour toute demande d’information complémentaire...*”. Bu “*oshkora*” taklif sanaladi. Biroq, o‘zbek tilida ushbu holat tashkilotning aloqa ma’lumotlari keltirilishi bilan kifoyalanadi. Buni qo‘shimcha ma’lumot olishning “*yashirin*” taklifi sifatida baholash mumkin. **Perlokutiv akt** tavsiyanomaning adresatga ko‘rsatadigan ta’siri va natijasini aks ettiradi. Bu orqali adresatda ijobiy taassurot va ishonch hosil bo‘ladi. Buning uchun, tavsiyanomalarning mazmuni va uslubi adresatga nisbatan ta’sirchan va aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Quyidagi jadvalda tavsiyanomalardagi asosiy nutqiy aktlar ifodasini ko‘rish mumkin :

3.3-jadval.

Tavsiyanomalarda nutqiy akt turlarining ifoda vositalari.

Nutqiy akt	Fransuz tilida:	O‘zbek tilida:	Natija:
Lokutiv akt	Nomzodning ijobiy fazilatlarini va soha doirasidagi namunali faoliyati birma-bir sanab o‘tiladi.		Fakti bayon qilish.
Illokutiv akt	<i>Je recommande vive-ment... / Je soutiens sa candidature... ;</i>	<i>Uni ushbu lavozimga tavsiya qilaman / Uning nomzodini to‘liq ma’qullayman ;</i>	Tavsiya, ma’qullash, ishonch.
Perlokutiv akt	Adresatda nomzodga nisbatan ishonch uyg‘otadi va ijobiy qaror qabul qilinishiga yordam beradi.		Asosiy natija.

Rasmiy uslubga xos qisqalik, rasmiylik, lisoniy tejamkorlik hamda nutqiy samaradorlik tavsiyanomalarda adresantning pragmatik maqsadga erishishini ta’minlaydi. Bunda ifodaning *illokutiv kuchi* va *perlokutiv ta’siri* muhim sanaladi.

Bobning navbatdagi bo‘limi “**Arizalar matnida nutqiy akt turlarining voqelanishi**”ga doir masalalarga bag‘ishlangan. Nutq aktlarining rasmiy hujjatlar matnida ifodalanishi turli omillarga bog‘liq bo‘lib, ular orasida tilning morfosintaktik tizimi, ijtimoiy-madaniy me’yorlar va kommunikativ strategiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, arizalar matnini nutqiy aktlar nazariyasi doirasida tahlil qilish ikki til orasidagi kommunikativ farqlarni yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Ariza matnlarida ham illokutiv aktning ifodalanishi asosiy tahlil mazmuni bo‘la oladi. Chunki u ariza yozishdan ko‘zlangan asosiy maqsaddir. Bunda adresantning adresatdan qanday javob yoki qanday harakat kutayotgani muhim sanaladi. Arizalar matnida *so‘rash, talab qilish, iltimos qilish, axborot berish* kabi nutqiy aktlar turli *illokutiv fe’llar* orqali ifodalanadi. Bunday aktlarni K.Allanning³¹ tasnifi asosida tahlil qilish yaxshi samara beradi.

Tahlilga tortilgan fransuzcha shikoyat arizalarida *axborot berish, fakti bayon qilish* kabi **konstativ** akti ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, *buyruq, iltimos, talab qilish* singari **direktiv akt** fransuz va o‘zbek tilidagi arizalarda keng qo‘llaniladi. Shuningdek, ularning ba’zi turlarida **avtoritativ** (*ruxsat berish, rozilik berish*) va **komissiv** (*va’da berish*) kabi nutq aktlari ham faol tarzda foydalaniladi. Fransuz tilidagi ariza matnlarida ish so‘rab murojaat qilinganda **avtoritativ** akti uchratish mumkin: “*Je vous demande votre autorisation pour suivre cette*

³¹ Allan K. Linguistic meaning: Vol. 2 – London, New York: Routledge, 2014. – P.192-203.

formation et j'accepte de m'engager à rester en poste pendant un an après celle-ci". Quyidagi misolda esa **komissiv** akti ko'rish mumkin : *"Je suis disposé à faire un stage non rémunéré si nécessaire."*

Ariza matnining aniq grammatik tuzilishga ega ekanligi, muammo va talablarning tushunarli shaklda bayon qilinganligi lokutiv akti aks ettiradi. Misol uchun, Kadastr agentligiga qilgan murojaati asossiz rad etilganidan shikoyat qilib, Adliya vazirligiga yo'llangan ariza matnida *"... biroq Davlat kadastrlar palatasi Samarqand shahar filiali tomonidan mening arizalarimga asossiz rad javobi berildi"* jumlasida lokutiv akti ifodalaydi. Shuningdek, adresantning maqsadi – davlat organidan adolatli yechim kutish, mas'ul shaxslarni javobgarlikka tortish talabidir. Bu maqsad illokutiv aktda vujudga keladi va u *"so'rayman"* fe'li orqali ifodalanadi. O'zbek tilidagi aksariyat arizalar matni amaliy jihatdan o'rganilganda *ruxsat so'rash* va *rozilik berish* aktlari keng tarzda qo'llanilishiga guvoh bo'ldik. Masalan, ... *qilishiga rozilik beraman; ... sir saqlashga va'da beraman* va hokazo.

Rasmiy uslubdagi illokutiv akt arizalarning eng muhim komponenti hisoblanadi va adresantning ariza yozishdan ko'zlagan asosiy maqsadini ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, ikkala tildagi arizalarda ham adresantning pragmatik maqsadini ifodalash uchun asosan *direktiv, konstativ* ba'zan *avtoritativ* va *komissiv* nutqiy aktlar ishtirok etadi. Ariza matnlarida adresatga ta'sir ko'rsatish va uni biror harakatga undash, shuningdek, undan javob harakati kutish asosiy o'rinni egallaydi. Bularning barchasi perlokutiv aktlar natijasida hosil bo'ladi. Shunday ekan, ularni arizalarning *pragmatik natijasi*, deb hisoblash o'rinlidir.

Bobning 3-fasli **"Tavsiyanomalar matnida kommunikativ taktika va strategiya muammosi"** deb nomlanadi. Kommunikativ strategiya kommunikativ taktika turini qamrab oladi. Kommunikativ taktika muloqot jarayonida ma'lum bir maqsadga erishishga xizmat qilsa, kommunikativ strategiya – muloqot jarayonini oldindan rejalashtiruvchi va asosiy maqsadga qaratilgan harakatlar tizimidir. Shuningdek, ayrim tilshunoslar kommunikativ taktikani kommunikativ strategiyani amalga oshirishdagi nutqiy ta'sir vositasi sifatida ta'riflaydi.³²


Quyida "MV ARCHITECTES" agentligi direktori o'z xodimi uchun taqdim etgan tavsiyanoma tahliliga e'tibor qilaylik. Unda adresant mo'ljallangan kommunikativ strategiyalarni 5 xil kommunikativ taktika yordamida amalga oshiradi. 1) Muallif nomzodning tashkilotda juda muhim xodim bo'lganligini eslash orqali adresatda u haqidagi ilk ijobiy taassurotni qoldiradi : *"Elle quitte l'agence pour des raisons personnelles et nous le regrettons fortement".* Shuningdek, matnda nomzodning shaxsiy va kasbiy fazilatlari sanab o'tiladi : *"... a accompli, avec zèle, passion et abnégation toutes les missions qui lui ont été confiées."* 2) Adresant nomzodning arxitektor sifatida ko'plab obyektlar loyihalarida (*réfectoires scolaires, salles de spectacles, lieux culturels, logements sociaux, logements étudiants et résidences touristiques, maisons individuelles, bâtiments industriels*) qatnashganligini ko'rsatish orqali turli topshiriqlarni bajarishga qodirligini ta'kidlaydi. 3) *"Sa maturité en tant qu'architecte et ses*

³² Baymurodova L. Nutqiy faoliyat tahlili va nutqiy strategiya ifodasi // O'zMU xabarlar. 2024. [1/6/1]. – B. 294–296.

qualités humaines lui ont valu notre totale confiance et affection.” jumlası orqalı xodım rahbariyat va hamkasblarining to‘liq ishonchi va mehriġa sazovor bo‘lganligi ifodalangan. 4) Matn yakunida aniq belgilangan yakuniy taktika qo‘llanilgan: *“Je la recommande vivement ...”*. 5) Tavsiyanoma matnining yakuniy qismida muallifning ism-familiyasi bilan bir qatorda, uning lavozimi (*Architecte DAUP*) ham keltirib o‘tilganligi u bergan ma‘lumotlarga ishonish mumkinligi isbotlangan.

O‘zbek tilidagi tavsiyanomalarda ham shu kabi taktikalar aks etadi. Masalan, quyida talabani tanlovga tavsiya qilish matniga e‘tibor qilaylik. (3.2-rasmga qarang)

Keltirilgan tavsiyanomada 1) matnda *“berilgan topshiriqlarga mas‘uliyat bilan yondashgan”*ligi, ularni *“vijdonan bajarishi”*, *“intizomli, mehnatsevarligi”* va egallagan bilimlarini *“amaliyotga tadbiq etishi bilan boshqa amaliyotchilardan ajralib turishi”* kabi ma‘lumotlar orqali nomzodning ijobiy va axloqiy fazilatlariga urg‘u berish; 2) nomzodning kelgusida *“Vatanimiz ravnaqiga hissa qo‘sha oladigan yetuk kadr”* bo‘lishiga ishonch bildirishi orqali ijobiy taassurot qoldirish; 3) fikr so‘ngida *“... tavsiya qilaman”* jumlası bilan yakunlash orqali o‘z qat‘iyligini namoyon etish; 4) matn nihoyasida *“... MCHJ direktori”* deb, imzolash orqali adresatning ishonchini qozonish kabi kommunikativ taktikalarni uchratish mumkin. Fransuz va o‘zbek tillaridagi tavsiyanomalarda kommunikativ strategiya va taktikalar adresatda nomzod haqida ijobiy taassurot qoldirish maqsadida ishonchli ma‘lumotlarni rasmiy ohangda aniq, qisqa holatda taqdim etishga xizmat qiladi. Asosiy kommunikativ strategiya bu – tavsiya qilishdir. Ikki til materialida ham bu strategiya ekplisit (oshkora) taktika orqali amalga oshiriladi.



3.2-rasm. O‘zbekcha tavsiyanomalardagi kommunikativ taktikalar.

Tavsiyanomalarda tavsiya qilinadigan nomzod haqidagi ma'lumotlar, uning kasbiy va shaxsiy fazilatlarini aniq misollar yordamida asoslanadi. Shu jumladan, adresant real (haqiqatdan mavjud) ma'lumotlarni taqdim etadi va o'zini neytral (betaraf, xolis) shaxs sifatida namoyon qiladi. Bunga sabab, u ma'lumotlarni keltirishda haddan ziyod maqtovdan qochishga va real ma'lumotlarga tayanishga harakat qilganligini ko'rish mumkin. Bunday holatni tadqiqotimizda reallik va neytrallik strategiyasi, deb nomlashni ma'qul deb topdik.

Bobning oxirgi fasli “**Arizalar matnida kommunikativ taktika va strategiya muammosi**” deb nomlanadi. Arizalar matnida adresant muloqot yetakchisi rolini ijro etadi. U pragmatik maqsadlarini amalga oshirish uchun uslub xususiyatlaridan chetlashmagan holda o'zi ma'qul deb hisoblagan kommunikativ strategiyalarni belgilaydi. Ma'lumki, adresant ko'zlagan kommunikativ strategiyalarini turli xil taktikalar orqali amalga oshiradi. Xususan, kommunikativ taktikalar orqali muloqotni boshlash uning ohangini belgilash, nutqiy vaziyat ishtirokchisi haqida taassurot hosil qilish hamda uning keyingi nutqiy harakatlarini taxmin qilishga imkon beradi.³³ Bunda u bir qancha lisoniy vositalar, stilistik uslublarga murojaat qiladi va arizaning boshdan-oyoq yozilish davomida iltifotli, rasmiy uslubdan unumli foydalanadi, ya'ni ariza matni hurmatni ifodalovchi kirish jumalari bilan boshlanadi va uning yakuniy qismigacha davom etadi: “*Je souhaite en conséquence solliciter de votre haute bienveillance...*”. Bu adresantning adresat xususidagi ijobiy fikrlarni ifodalash bilan bir qatorda, muallifning xushmuomalali ekanligini va rahbarga nisbatan yuksak izzat-ehtiromini namoyon etadi.

O'zbek tilidagi arizalarda ham quyidagi pragmatik jihatlarni ajratish lozim: 1) murojaatchining ijobiy javob olishga yo'naltirilgan kommunikativ strategiyasi; 2) arizalarning muammo bayoni, *iltimos* yoki *talab* kabi qismlardan iboratligi; 3) dalillarga asoslanish va mulohazali yondashuvning qo'llanilishi; 4) zaruriy hujjatlarni ilova qilish ham umumiy xususiyatlardan biri hisoblanadi. Bunday yondashuvni muallifning o'z pragmatik maqsadiga erishishni osonlashtirishga qaratilgan strategiyasi, deb ham qarash mumkin. Demak, arizalarda adresant o'z strategiyasini amalga oshirish uchun turlicha kommunikativ taktikalardan va turli lisoniy birliklar, qoliplashgan qurilmalardan foydalanadi hamda adresatga nutqiy ta'sir o'tkazish maqsadida qo'shimcha axborotlarni ham taqdim etadi.

3.6-jadval.

Arizalarning kommunikativ strategiya va taktikaga xos umumiy xususiyatlari.

Kommunikativ strategiya vositalari	Fransuzcha arizalarda :	O'zbekcha arizalarda :
	Rasmiylik / hurmat / xushmuomalalik / ijobiy natijaga undash.	Rasmiylik / neytral ohang / ijobiy natijaga undash.
Kommunikativ taktika vositalari	Modal iboralar / rasmiy qoliplashgan iboralar / “ <i>formule de politesse</i> ”-ni qo'llash / hamdardlikni uyg'otish.	Modal iboralar / rasmiy qoliplashgan iboralar / hamdardlikni uyg'otish.

³³ Нестерова Н. Г. Коммуникативные стратегии и тактики в спонтанном радио дискурсе // Знак: проблемное поле медиаобразования. – 2012. – № 2. – С. 55–60.

Fransuz va o'zbek tillaridagi arizalar kommunikativ strategiya va taktika jihatidan muayyan farqlarga ega. Ularning pragmatik tahlili natijasida quyidagi xususiy jihatlarni ajratish lozim: 1) fransuz va o'zbek tillaridagi arizalar o'ziga xos kommunikativ taktikalari bilan farqlanadi, ya'ni fransuzcha arizalar yumshoq modallik va diplomatik iboralar bilan ajralib turadi: "*Je souhaite solliciter de votre bienveillance...*" kabi jumlar ariza beruvchining iltimosini nozik tarzda ifodalashga xizmat qiladi; 2) o'zbekcha arizalar ko'proq qat'iyroq va huquqiy asoslangan bo'lib, ularda "... *so'rayman*" kabi bevosita talab shakllari keng qo'llaniladi; 3) fransuz tilidagi ariza xatlari o'zlarining yakuniy qismida hurmat ifodasi orqali iyerarxik munosabat, xushmuomalalik darajasi kabi xususiyatlarga ega bo'lsa, o'zbek tilidagi arizalar matnida esa bu kabi komponentlar uchramaydi.

UMUMIY XULOSA

1. Rasmiy idoraviy ish uslubi jamiyat a'zolarining turli sohalaridagi o'zaro rasmiy munosabatlarini va aloqalarini ta'minlashga qaratilgan o'ziga xos, shuningdek, tarixan shakllangan hamda leksik-grammatik, struktur-semantik va asosan, kommunikativ-pragmatik xususiyatga ega nutq uslubidir.

2. Fransuz tilshunoslari azaldan rasmiy-idoraviy ish uslubining leksik va struktur-sintaktik xususiyatlariga e'tibor qaratib kelgan bo'lsa, boshqa tilshunoslar fransuz tili rasmiy uslubining umumlisoniy va nolisoniy xususiyatlarini pragmatik aspektida o'rganishga e'tibor qaratmoqda. O'zbek tilshunosligida esa so'nggi vaqtlarda rasmiy hujjatlarning morfosintaktik, pragmatik, kognitiv, lug'aviy, shakliy, lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etish ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa, fransuz va o'zbek tili rasmiy ish uslubi tadqiqi pragmatik yondashuv asosidagi keng qamrovli qiyosiy tahlilni talab etadi.

3. Rasmiy hujjatlarning nomlanishi ularni shakl va mazmun jihatdan turkumlarga ajratishda asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Binobarin, har qanday rasmiy idoraviy hujjatning nominativ xususiyatlari ularning mazmuni va mavzusini oldindan belgilashga xizmat qiladi.

4. Fransuz tilida arizalar o'zlarining kommunikativ maqsadi, ohangi va qo'llanilish vaziyatiga ko'ra farqlanadigan *demande, lettre de réclamation, requête, plainte* kabi turlarga bo'linsa, o'zbek tilida *iltimos, shikoyat, taklif va da'vo* mazmunidagi arizalarga ajratiladi. Shuningdek, ikkala til ariza matnlarida uchraydigan rasmiylik strategiyasi asosiy kommunikativ-pragmatik mezonlardan biri sanalgan holda ikkala tilda ham turli modal fe'llar, rasmiy qoliplashgan kirish va yakunlash shakllari orqali ifodalanadi.

5. Fransuz va o'zbek tillaridagi rasmiy-idoraviy ish hujjatlari uslubi berilayotgan ma'lumotlarning aniqlik, ixchamlik, rasmiylik, izchillik, imperativlik (buyruqqa oid) va xolislik kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

6. Fransuzcha va o'zbekcha tavsiyanoma hamda arizalar matnidagi kommunikativ vaziyat muloqot komponentlari va muloqot bosqichlarida ifodalangan lisoniy yoki ayrim hollarda turli xil emotsiyalarni ifodalovchi paralingvistik vositalar (undov, uch nuqta kabilar) orqali namoyon bo'ladi. Bu holat fransuz va o'zbek tillarida turlicha sodir bo'lishi mumkin. Fransuzcha

tavsiyanoma va arizalarda muloqot yakunida adresant xushmuomalalik shakllaridan foydalanadi. Mazkur usul fransuzcha hujjatlarning asosiy va zaruriy komponenti hisoblanishi bilan bir qatorda, asosiy kommunikativ taktika sifatida qaraladi, ammo o‘zbekcha tavsiyanoma va arizalar esa bunday holatlardan mustasnodir.

7. Fransuz va o‘zbek tillaridagi tavsiyanoma hamda arizalar matnida adresantning pragmatik maqsadi eksplisit va implisit tarzda ifodalanadi va u ikki xil, ya’ni boshlang‘ich hamda natijaviy maqsadlarni qamrab oladi. Boshlang‘ich maqsad hujjat yaratilishining asosiy sababini belgilasa, natijaviy maqsad esa adresant erishmoqchi bo‘lgan natijaviy maqsadni ifodalaydi. Ular bir-birini to‘ldirib, hujjatning umumiy mazmun va asosiy maqsadini yanada tushunarli qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

8. Tavsiyanomalarda lokutiv akt faktlarni bayon qilish tarzida amalga oshadi va buning pragmatik natijasi o‘laroq, ulardagi *tavsiya qilish, ma’qullash, ishonch bildirish* kabilar asosiy illokutiv aktlarni hosil qiladi. Illokutiv aktlar tavsiyanomalar matnida turli illokutiv fe‘llar yordamida faollashadi, natijada perlokutiv akt tavsiyanomaning asosiy kommunikativ natijasini ifodalashga xizmat qiladi.

9. Arizalar matnida ham illokutiv akt muhim komponent sanalgan holda o‘zlarida *direktiv* (buyruq, talab, iltimos qilish), *konstativ* (darak-axborot berish), ba’zi holatlarda *avtoritativ* (ruxsat berish) va *komissiv* (va’da berish) kabi nutqiy aktlar orqali ifodalanadi. Ulardagi perlokutiv akt esa adresatga ta’sir ko‘rsatish va uni biror harakatga undash, shuningdek, undan javob harakati kutish kabilar orqali amalga oshadi.

10. Tavsiya qilish tavsiyanomalarning asosiy kommunikativ strategiyasidir. U *recommender, tavsiya qilmoq* kabi illokutiv fe‘llar orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri va oshkora tarzda bayon etiladi. Adresatni muallif uchun manfaatli qaror qabul qilishga undash strategiyasi esa arizalarning asosiy kommunikativ strategiyasi sanaladi. Ushbu strategiya aksariyat hollarda o‘zining muammolariga adresatning e’tiborini jalb qilish va unga nisbatan hamdardlikni uyg‘otish taktikasi orqali namoyon bo‘ladi.

11. Xushmuomalalik strategiyasi fransuz tili rasmiy uslubiga xos asosiy kommunikativ-pragmatik kategoriyalardan biri hisoblangan holda rasmiy idoraviy hujjatlarning ariza va tavsiyanoma turlarida birdek pragmatik ahamiyatga ega. Biroq ushbu kategoriya o‘zbek tilidagi arizalarda qisman uchrasa-da, tavsiyanomalarda esa umuman qo‘llanilmaydi va bu holat ayniqsa ulardagi mazmunning betaraf ohangga ega ekanligini isbotlaydi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

ФАЙЗУЛЛАЕВ ХУРШИД ИСМАТИЛЛА УГЛИ

**ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОФИЦИАЛЬНО-ДЕЛОВЫХ
ДОКУМЕНТОВ НА ФРАНЦУЗСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ
(на примере заявлений и рекомендательных писем)**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологии зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан (рег. № В2023.1.PhD/Fil3199).

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.samdchti.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Ашуров Шахобиддин Саидович
кандидат филологических наук, профессор

Официальный рецензент:

Киселёв Дмитрий Анатольевич
доктор филологических наук (DSc), профессор

Нишонов Патхиддин Пайзибоевич
кандидат филологических наук, доцент

Ведущая организация:

Бухарский государственный университет

Защита диссертации состоится «3» апрель 2026 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 при Самаркандском государственном институте иностранных языков (Адрес: 140117, г. Самарканд, ул. Гагарина, 43. Тел: (99866) 233-78-43; факс: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (рег. № 62856). Адрес: 140117, г. Самарканд, ул. Гагарина, 43. Тел.: (99866) 233-78-43.

Автореферат диссертации разослан «16» марта 2026 года.
Протокол реестра рассылки за № 17 от «16» марта 2026 года.



Н.З. Насруллаева

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

У.У. Кулдошов

Ученый секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии (PhD) по филологии, доцент

У.Д. Каршибаева

Заместитель председателя научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой лингвистике прагмалингвистика, являющаяся относительно новым направлением, в последние годы находится в центре внимания исследователей. По наиболее актуальным вопросам данной области многими учёными ведутся обширные научные изыскания. В этом контексте наблюдается растущий интерес к прагматическому изучению официально-деловых документов и служебной переписки, а также к их научному анализу. Таким образом, анализ прагматических характеристик текста официальных писем и документов, а также прагмалингвистический подход к процессу их восприятия постепенно превращаются в актуальную научную проблему. Кроме того, в последние годы всё больше узбекской молодёжи, изучающей французский язык, стремится участвовать в различных конкурсах с целью получения зарубежных стипендий. Известно, что в этом процессе от студентов требуется владение навыками работы с официальной документацией и деловой перепиской на достаточном уровне, что также обуславливает актуальность данного исследования.

В современной мировой лингвистике особое внимание уделяется всестороннему исследованию языковых явлений с лингвопрагматических позиций, а также с точки зрения теории речевых актов. В результате любое языковое явление постепенно превратилось в основной объект изучения прагматики. В частности, вопросы, связанные с функциональными стилями языка, активно рассматриваются на основе лингвопрагматических принципов, а проблемы речевых актов занимают значительное место в перечне международных научно-практических исследований. Следовательно, анализ лингвопрагматических характеристик текста официальных документов, то есть выявление механизмов воздействия официального общения в процессе выражения авторских интенций, считается крайне важным. В связи с этим в обществе ощущается необходимость достижения ряда научно-практических результатов: укрепления своеобразия документационного стиля каждого народа, обеспечения чистоты языка официального стиля, а также совершенствования лингвистической основы межгосударственных официальных отношений.

После обретения нашей страной независимости были созданы широкие возможности для изучения иностранных языков. В частности, изучение французского языка и в настоящее время сохраняет свою актуальность. Особенно расширяющиеся экономические, социальные, культурные, политические и научные связи между нашей страной и Французской Республикой свидетельствуют о необходимости ещё более глубокого освоения данного языка. В частности, интенсификация сотрудничества между двумя странами требует активного использования официальной межведомственной переписки. Кроме того, исследование специфики официального стиля в сопоставительном аспекте подтверждает, что данное

направление является одним из важнейших источников научных исследований в области лингвистики. Следовательно, изучение лингвопрагматических особенностей официального стиля в некорродственных языках может способствовать решению целого ряда существующих проблем. Когда Президент Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёев подчеркнул необходимость ведения делопроизводства и документооборота во всех государственных учреждениях на государственном языке³⁴, он, по сути, выразил заботу о будущем узбекского языка и основанной на нём государственной документации. Это, в свою очередь, свидетельствует о наличии перед лингвистами множества важных задач. Требование на государственном уровне к строгому соблюдению орфографической, стилистической, грамматической и лексической нормы в официальных текстах³⁵ доказывает необходимость уделять повышенное внимание их научному изучению.

Данное диссертационное исследование в определенной степени способствует выполнению задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» и от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», а также в Постановлениях от 5 июня 2018 года № ПК-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших учебных заведениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах», от 6 ноября 2020 года № ПК-4884 «О дополнительных мерах по совершенствованию системы образования и воспитания», от 25 января 2021 года № ПК-4963 «О мерах по поддержке научно-исследовательской деятельности в сфере дошкольного и школьного образования и внедрению системы непрерывного профессионального развития» и от 19 мая 2021 года № ПК-5117 «О мерах по выведению деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан на качественно новый этап», а также в других нормативно-правовых актах, относящихся к данной деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики - I «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации для социального, правового, экономического, культурного, духовно-просветительского развития информационного общества и демократического государства».

³⁴ Указ Президента Республики Узбекистан от 20 октября 2020 года № УП-6084 «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране» // <https://lex.uz/docs/-5058351> (дата обращения: 25.09.2025).

³⁵ Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 22 января 2025 года № 29 «О мерах по повышению уровня научной обоснованности проектов нормативно-правовых документов»// <https://lex.uz/uz/docs/-7331457> (дата обращения: 28.09.2025).

Степень изученности проблемы. Область прагмалингвистики, являющаяся одним из проявлений развития науки о языке, к настоящему времени привлекла внимание многих исследователей. В этом процессе научно-теоретические взгляды ряда лингвистов, таких как Ч.Моррис, Дж.Р.Серль, Д.Вандервекен, Н.Арутюнова, Н.Формановская, Ш.Сафаров и А.Маслова³⁶, на речевые единицы и их прагматическое содержание служат лингвистическим ключом к решению проблем теории речевых актов и речевого воздействия. Следовательно, если принять во внимание, что для понимания истинной сути прагматических явлений в языке необходимо осознавать не только лингвистические, но и философские, логические и социальные характеристики, то при формировании «прагматики официального стиля» опора на принципы логичности и социальности является естественной. С этой точки зрения, исследование вопросов официально-делового дискурса осуществляется на стыке семантического, функционального, коммуникативного, когнитивного и других подходов.

